

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FIL.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

DOSHANOVA GULJAXAN ISMAILOVNA

HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA KICHIK LIRIK SHAKLLAR

TAKOMILI

(Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro'z ijodi misolida)

10.00.02 – o'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch - 2023

UDK: 82-14 (021)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

The content of dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)

Doshanova Guljaxan Ismailovna

Hozirgi o'zbek she'riyatida kichik lirik shakllar takomili

(Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro'z ijodi misolida) 3

Doshanova Guljaxan Ismailovna

**РАЗВИТИЕ МАЛЫХ ЛИРИЧЕСКИХ ФОРМ В СОВРЕМЕННОЙ
УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ**

**(на примере творчества Сирожиддина Сайида, Махмуда Тоира и
Фариды Афруз)..... 25**

Doshanova Guljahan Ismailovna

**IMPROVEMENT OF SMALL LYRICAL FORMS IN CURRENT
UZBEK POETRY**

**(In the example of works of Sirojiddin Sayyid, Mahmoud Toir and Farida
Afroz)..... 49**

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

DOSHANOVA GULJAXAN ISMAILOVNA

HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA KICHIK LIRIK SHAKLLAR

TAKOMILI

(Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro'z ijodi misolida)

89 2

10.00.02 – o'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhDFil570 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog' davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.fil-ik.urdu.uz) va «Ziynet» Axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gaylieva Ogulbay Kurbanmuradovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Karimov Bahodir Nurmetovich
filologiya fanlari doktori, professor

G'ayipov Dilshod Qadambaeovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Etakchi muassasa:

Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 20__ yil «__» ____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 22467-00, e-mail: www.fil-ik.urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (**644** raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 20__ yil «__» ____ kuni tarqatildi. (20__ yil «__» ____ dagi ____ - raqamli reestr bayonnomasi).



Z.Do'simov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

S.M.Sariev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
filologiya fanlari doktori (DSc),

A.D.O'razboev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi v.v.b., filologiya fanlari
doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida she'riy janrlar shakllanishi va tadriijiy rivojini poetik tafakkur doirasida o'rganish tamoyili ustuvorlik kasb etishi adabiy jarayonning milliy badiiy tafakkur kontekstida tutgan o'rini belgilashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi adabiy jarayonning rivojlanishida she'riy janrlarning funksional-semantik xususiyatlari va poetik tabiatiga doir nazariy qarashlarni tubdan yangilagani kuzatiladi. Bu esa adabiyotdagi she'riy shakllar xilma-xilligini adabiy an'analarning milliy o'ziga xosligi, ijodkorlar poetik mahorati, badiiy ta'sir jarayoni kontekstida tadqiq etishga imkoniyatlar ochadi.

Dunyo adabiyotshunosligida she'riyatning turli qirralari etarlicha o'rganilgan bo'lib, lirik asarlar tadqiqi uchun adabiy-nazariy dasturga munosib ilmiy asarlar mavjudligi tufayli istiqlol yillarida dunyo hamjamiyatiga qo'shilib borayotgan O'zbekistondagi adabiy muhitni, globallashuv jarayonidagi katta va kichik adabiy janrlar tabiatini jahon adabiyoti nazariyalari mezonlari bilan tekshirishga zarurat bor.

O'zbek adabiyotshunosligida sobiq Ittifoq davri adabiyot ustidan yuritilgan siyosatida lirik asarlarning g'oyaviy jihatlariga ko'proq urg'u berildi. Holbuki, she'riyatda shunday ixcham janrlar borki, ularning mazmun-mohiyati, hikmatlarga yo'g'irilganligi, insonga ta'siri nuqtai nazaridan ulkan hajmli asarlarga barobar keladi. Ayniqsa, zamonaviy shoirlarning poetik mahoratini ko'rsatishda, ularning abadiyatga mansub mavzularni ixcham yo'sinda bayon etish iste'dodlarini tekshirishda kichik lirik janrlar shakl va mazmunini turli rakurslarda qiyosan tadqiq etish orqali davriy-ijodiy individuallikning o'zaro uyg'un va tafovutli tomonlarini ko'rsatib, ilmiy xulosalar chiqarish mazkur muammoning dolzarbligidan dalolat beradi. Zotan, «...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanligini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q»¹. Shubhasiz, milliy she'riyatimizning jahonga yuz tutishi poetik tafakkur rivojida, yosh avlod kamolotida, badiiy barkamollik va yetukligini ta'minlashda kichik lirik she'rlar mazmuniga singdirilgan falsafa va hikmat juda katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida kichik she'riy janrlar masalasini muhokama qilish, ijodkorning poetik tafakkuri tabiatini anglash, ixcham qarashlarda katta ma'nolarni anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman, mumtoz sharq adabiyoti va XX asr o'zbek adabiyoti tarixida kichik lirik janrlarga murojaat qilgan shoirlar ko'p uchraydi. Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek adabiyotida ham bu janrda ijod qilayotgan bir qator shoirlar borki, ular she'riyatini ayni mavzu doirasida muhokama qilishga zarurat bor. Shunday ekan, hozirgi o'zbek she'riyatida shakliy izlanishlar, jumladan, kichik lirik she'riy shakllarning o'ziga xos xususiyatlari,

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон иждоқор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

uning g'oyaviy mazmuni, milliy she'riyatda kichik lirik shakllarning yuzaga kelishi, adabiy ta'sir va uyg'unlik, kichik lirik shakllardagi she'rlar tahlili orqali ijodkor mahoratini aniqlash bugungi adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy xulosalar beradi. Chunki, lirik janrlar poetikasi va tipologiyasi, she'r tuzilishining genezisi va semiotik tabiati, she'riyatdagi shakliy izlanishlarning mazmuni ifodalashdagi roli va semantik funksiyalari, she'riy shakllar rang-barangligini ta'minlashdan ijodkor individual uslubining o'rmini zamonaviy shoirlardan Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z ijodiga mansub kichik lirik she'riy shakllarni qiyosiy tahlil va tadqiq qilish, ulardagi yuksak insonparvarlik g'oyalarni yoritib berish hamda she'riyatimizdagi kichik lirik shakllar takomilini aniqlash ishimning **dolzarbligini** belgilaydi.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrda PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy- tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 13 sentyabrda PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 fevraldagi 124-F-son «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida»gi farmoyishi hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yullari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida lirik asarlar tadqiqiga bag'ishlangan monografiyalar, nazariy maqolalar, darsliklar, ilmiy fikr-mulohazalar anchagina. Bu voqelikning o'zi juda katta tarixdir. Ayniqsa, hozirgi zamon amerika adabiyotshunosligining yirik vakillari S.Styuart, X.Vendler, J.Kuller tadqiqotlarida yangi she'riy shakllarning yuzaga kelishida ijodkor individual uslubining o'rni va lirik janrlar nazariyasi keng yoritilgan². B.A.Uspenskiy, M.L.Gasparov, YU.N.Tinyanov, I.V.Fomenko, I.YU.Svetlikova, G.N.Kaskinova, V.I.Tyupa, L.N.Konyuxov, R.O.YAkobson, E.A.Balashova, O.A.Ostankovich, D.I.Kuzmin, T.I.Breslavets, I.A.Boronina, E.Dyakonova, E.L.Frolova, E.Balakina, D.Kudrya kabi rus olimlarning ilmiy tadqiqotlarida³

² Stewart S. Poetry and the Fate of the Senses. – Chicago: University of Chicago Press, 2002; Vendler H. Poems, Poets, Poetry. – Boston: Bedford/St. Martins, 2002; Culler J. Theory of the Lyric. Cambridge. – Harvard: University Press, 2015.

³ Стеблева И.В. К вопросу о происхождении жанра туюг. // Тюркологический сборник. – М., 1970; Успенский Б.А. Поэтика композиции. – СПб., 2000; Гаспаров М. Л. Очерк истории русского стиха. – М., 2000;

she'riyatning shakl masalalari, she'r tuzilishi, janrlar tipologiyasi, she'riyatda kichik lirik shakllar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida nazariy qarashlar bildirilgan.

Muayyan bir mintaqada yonma-yon yashovchi xalqlar she'riyatidagi she'riy shakllar masalalari F.R.Alieva, Z.A.Magomedov, M.X.Xalilov, SH.I.Nuriddinova, A.YU.Abdulatifov va L.A.SHabaevlar tomonidan tadqiq etilgan⁴.

Turkiy xalqlar, jumladan, qoraqalpoq⁵ va turkman⁶ adabiyotshunosligida she'riy janrlar, she'riyatda badiiy shakl masalalari haqida ham ancha tadqiqotlar yaratilgani kuzatiladi.

O'zbek she'rshunosligi mumtoz yo'llardan o'tib, XX asrning 20 yillari arafasida muayyan tizimga tushdi. Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, Oybek, keyinchalik, Izzat Sulton kabi adabiyotshunos olimlarning ilmiy asarlarida she'riy asarlarni tahlil qilish qonuniyatlari ko'rsatib berildi. Mavzuning o'rganilish tarixiga nazar solinganda, o'zbek adabiyotshunosligi bu sohada katta tajribaga ega

Тынянов Ю.Н. Проблема стихотворного языка. Литературный факт. – М., 2002; Фоменко И.В. Введение в практическую поэтику. – Тверь, 2003; Светликова И.Ю. Истоки русского формализма. – М.: Новое литературное обозрение, 2005. – 176 с.; Каскина Г.Н. Вопросы структурной поэтики в современной башкирской поэзии: Автореф. дисс. филол. наук. – Уфа, 2007. – 21 с.; Тюпа В.И. Анализ художественного текста. – М.: Издательский центр «Академия», 2009. – 336 с.; Конохов Л.Н. Формально-содержательные модификации моностиха в русской литературе XX века: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2009. – 24 с.; Якобсон Р.О. Формальная школа и современное русское литературоведение. – М.: Языки славянских культур, 2011. – 280 с.; Балашова Е. А. Анализ лирического стихотворения (учебное пособие). – М.: Флинта, 2011; Останкович А.В. Повтор в гармонической системе триолета // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов, 2013. – №3 (21). – часть 1. – С.121-123; Кузмин Д.И. История русского моностиха. – М.: Новое литературное обозрение, 2016. – 432 с.; Бреславцев Т.И. Традиция в японской поэзии: Классический стих танка / Бреславцев Т.И. – Владивосток: Изд-во Дальневост. Ун-та, 1992. – 120; Боронина И.А. Поэтика яаонской «танка» // Народы Азии Африки. 1965. №5; Е.Дьяконова. Как читать и помнить хайку. academy/materials; Фролова Е.Л. Основы классического японского стихосложения. <http://japanstudies.ru>. Е.Балакина. Своеобразие японской поэзии в стиле хокку (хайку), танка. <https://ivorcheskije-proekty.ru>; Д. Кудря.Хайку plus, или несколько слов о «русский хайку» // Арион, 2011. №1. Стр. 74-79.

⁴ Алиева Ф.Р. Песенное стихосложение карачаевцев и балкарцев: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Махачкала, 1995; Магомедов З.А. Композиция песенной лирики народов Дагестана. – Махачкала, 2003. – 203 с. Халилов Х.М. Лирика народов Дагестана: взаимосвязи, типология и этническая специфика. Махачкала, 2004. – 296 с.; Нуриддинова Ш.И. Трансформация персидско-таджикского рубая в арабской поэзии XI-XIII вв.: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Душанбе, 2009; Абдулатипов А.Ю., Шаббаева Л.А. К проблеме типологии, специфики и взаимосвязей тюркоязычных литератур и турецкой литературы первой половины XX века // Вестник Дагестанского государственного университета. – Махачкала, 2013. – №1. – С.243-246; Ким Хен Ен. Теория метатекста и формы ее проявления в поэтике // Acta slavica i aronica. T.21. – Tallin, 2014. – PP. 202-213.

⁵ Мамбетов К. Эдeбиeт теориясы. – Некис: Билим, 1995; Хамидова А. И. Юсупов творчествосы хeм Европа эдебиeти (eдебий байланыслар хeм eдебий тeсирлер мeсeлеси): Филол. илим. канд. дисс. – Некис, 1999; Мамбетова М. И. Юсупов поэзиясынын косык курылысы: Филол. илим. канд. дисс. – Некис, 1999; Пахратдинов Д. И. Юсупов лирикасында Шыгыс классиклери дeстурлери (eдебий байланыслар хeм тeсирлер хаккында): Филол. илим. канд. дисс. – Некис, 2001; Жeрмисенов К. XIX eсир каракалпак лирикасынын жанрлык касиетлери хeм рауажлануу тарихы. – Некис, 2004; Оразымбетов К. Хeзирги дeуирдеги каракалпак лирикасында кeркeмдик изилениптели. – Некис: Билим, 1992; Уша муаллиф: Хeзирги каракалпак лирикасында кeркeм формалардын эволюциясы хeм типологиясы. – Некис: Билим, 2004; Досымбетова А. Ш. Сейтов лирикасында кeркeм форма. Филол. илим. канд. дисс. – Некис, 2008; Гайлиева О. Гeрезинлик дeуири туркий халыктар лирикасында формалык изленислер хeм олардын типологиясы (eзбек, каракалпак хeм туркмен лирикасы мысалында): Филол. ф. д-ри. дисс. (DSc). – Некис, 2019. 270.

⁶ Абдыллаев О. Эдeбиeт теориясы. – Aшгaбат: Магарыф, 1985; Садыков Т. Гурбанназар Eнзeзовнын поэзиясынын чeперчилиги уссалгысы. Филол. илим. канд. дисс. автореф. – Aшгaбат, 1995; Orazova J. Turkmen poeziyasında otmuk bölekler / «Garagum» jurnalı. – Aşgabat, 2013. №3; Амансeхeдов М. Шыгaр сунгаты ве шахырана шахсыет. – Aшгaбат: Pux, 2000; Amansheadow M. Edebiyat teoriyasyny esaslary. – Turkmenabat, 2010.

ekanligi ko'zga tashlanadi⁷. O'z navbatida adabiyotshunos R.Orzibekov tomonidan kichik lirik janrlar maxsus o'rganildi va maxsus monografiya nashr etildi⁸. Bir qator olimlar mumtoz she'riyat tarkibidagi kichik lirik janrlar bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib bordilar⁹. Farg'onalik adabiyotshunos Qahhor Yo'lchiyev «Tipologik o'xshashliklar: birlik va uchlik» nomli maxsus kitob yozdi¹⁰. Adabiyotshunos S.Djuraeva «XX asr o'zbek adabiyotshunosligida mumtoz lirik janrlar tadqiqi (rubiyo, tuyuq, qit'a misolida)» (Samarkand, 2020) nomli tadqiqot ishida o'zbek mumtoz adabiyotidagi rubiyo, tuyuq, qit'a shaklidagi she'rlarni qiyosiy tahlil qiladi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi.

Shuningdek, qoraqalpog'istonlik olim O.Gaylieva tomonidan kichik lirik she'riy shakllar masalasi o'zbek, qoraqalpoq va turkman shoirlari ijodi misolida tadqiq etilishi ayni masalaning qamrov doirasini yanada kengaytirdi¹¹.

Lekin hozirgacha zamonaviy o'zbek she'riyatida kichik lirik shakllar takomili Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro'z ijodi misolida qiyosan tadqiq qilinmadi. Yurtimiz taraqqiyot tamoyillarining poydevori bo'lmish yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyot, jumladan, she'riyatning tutgan o'rni juda katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqot ishimizga asos qilib olingan materiallar respublika ilmiy jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, ayni damda, yosh avlodning milliy-ma'naviy dunyoqarashini yanada o'stirish, ularni xalqparvarlik, vatanparvarlik, do'stlik va ezgulikka sadoqat ruhida tarbiyalashda xizmat qilishi bilan ham xarakterlanadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasidagi «O'zbek she'riyatini o'rganishning dolzarb masalalari» mavzusidagi tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

⁷ Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент, Фан, 1961, – 295 б.; Х.Зариф. Алишер Навоийнинг рубоий ва туюклари // Фозиллар фазилати. – Тошкент, Фан, 1969; Р.Орзиеков. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент, 1976; шу муаллиф. Туюк поэтикаси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1985. – 23 б.; яна ўша. Ўзбек классик лирик поэзияси жанрларининг инкишоф йўли. – Самарқанд: СамДУ, 1980. – 60 б.; яна ўша. Ўзбек классик шеъриятида мураббаъ. – Тошкент, Ўзбекистон, 1981. – 22 б.; Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Тошкент, Фан, 1972; шу муаллиф. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1979; Иброҳимов М. Кичик поэтик жанрлар ва ularning услуб хусусиятлари / Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Тошкент, Фан, 1983. – Б. 154-206; Очилов Э. Ўзбек адабиётшunosлигида рубоийнинг ўрганилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. № 6. – Б. 19-32; Саримсоков Б. Алишер Навоий ва шеърий мезонлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. № 1. – Б. 16-22; Юлчиев Қ. Ўзбек шеъриятида бирлик ва учлик шеър поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017; Джураева С. XX аср ўзбек адабиётшunosлигида мумтоз лирик жанрлар тадқиқи (рубойи, туюк, қитъа мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020; Одиждонова К. Сирожиддин Саййид шеъриятида тўртлик ва фард жанрлари // Science and Education Scientific Journal. July 2020. Volume 1 Issue 4.

⁸ Қаранг: Орзиеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент, 1976.

⁹ Қаранг: Ҳаққул И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Тошкент: Фан, 1981; Хўжанова Г. “Ҳибатул ҳақойиқ” ҳақиқатлари. – Тошкент, Адабиёт ва санъат, 2001; Афоқова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва қитъа. – Тошкент: Фан, 2005; Маматқулов М. Қадимги туркий адабиётда тўртлик ва марсия. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

¹⁰ Йўлчиев Қ. Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик. –Тошкент: Турон замин зию, 2016. – Б. 7.

¹¹ Қаранг: Гайлиева О. Ғарезсизлик даъури туркий халықлар лирикасында формалык изленислер ҳам олардың типологиясы (өзбек, қарақалпақ ҳам туркмен лирикасы мысалында): Филол.фан д-ри ... дисс. (DSc). – Некис, 2019. –Б. 270.

Tadqiqotning maqsadi Zamonaviy o'zbek she'riyatining zabardast namoyondalari Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro'z ijodi misolida bugungi o'zbek she'riyatida mavjud kichik lirik shakllar takomilini yoritish orqali muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar ijrosi muhim sanaladi.

Tadqiqotning vazifalari:

dunyo adabiyotshunosligida she'riyatdagi badiiy shakllar evolyusiyasi, kichik lirik janrlar va shakllar genezisi hamda tipologiyasi xususidagi fikrlarni o'rganib, ularga munosabat bildirish;

zamonaviy o'zbek she'riyatidagi kichik lirik she'riy shakllarni xalq og'zaki ijodi hamda jahon she'riyatidagi kichik lirik janrlardan ta'sirlanish omillari bilan uyg'unlikda tahlil qilish, ularning janriy xususiyatlari va shakliy-kompozitsion strukturasini, shuningdek, kichik lirik she'rlar badiiy tafakkur evolyusiyasidagi o'ziga xos jihatlar va badiiy vazifalarni ochib berish;

kichik lirik janrlar genezisini tadqiq etish orqali hozirgi o'zbek she'riyatiga Sharq mumtoz badiiy an'alarining ta'siri, shu asosda yuzaga kelgan kichik lirik shakllarning janriy xususiyatlari va tipologiyasi asoslarini ochib berishda ob'ekt shoirlar ijodiga metodologik tomondan yondashish;

hozirgi o'zbek shoirlari ijodidagi she'rlarning mumtoz adabiyotdagi ruboiy, tuyuk, fard, qit'a va shu kabi janrlararo garmoniyasiga diqqat qaratish;

Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro'z she'riyati tahlili asosida hozirgi o'zbek adabiyotidagi kichik lirik shakllar poetikasini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish tamoyillarini takomillashtirish;

Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro'z she'riyati tarkibi, mavzular ko'lam, individual uslubini o'rganish barobarida ular ijodidagi kichik lirik she'riy shakllarni atroflicha tadqiq etish;

hozirgi davr kichik lirik she'riy shakllariga xos tamoyillarni, she'rlar badiiyatini, poetik so'z va obraz munosabatini, xususan, shoirlar qo'llagan badiiy san'atlar, vazn masalalari hamda qofiya tizimini muammo tabiatiga eng munosib metodlar asosida muhokama qilish va amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston xalq shoirlari Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir hamda iste'dodli shoira Farida Afro'zning she'riy to'plamlari hamda davriy matbuotda e'lon qilingan she'rlari tahlilga tortildi.

Tadqiqotning predmetini hozirgi zamon o'zbek she'riyatidagi kichik lirik shakllar, ularga xos individual jihatlar, ular mazmuniga singdirilgan aforistik xususiyatlar va shu kabi boshqa adabiy masalalarni o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, qiyosiy-tipologik, struktural va adabiy-estetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik lirik she'riy shakllarning ilmiy-nazariy jihatlariga jahon va o'zbek olimlarining munosabati hamda ilmiy qarashlari o'rganilib, zamonaviy adabiy jarayon mahsuli sifatida yuzaga kelgan kichik lirik shakllar struktural-semantik

xususiyatlariga ko'ra yangi badiiy-estetik hodisa ekanligi bugungi adabiy jarayon fonida dalillangan;

she'riyatdagi kichik lirik she'riy shakllar, bir tomondan, xalq og'zaki ijodi, ikkinchidan, jahon adabiyotining ta'siri, uchinchidan, sharq mumtoz she'riyati an'analardan ijodiy oziqlanish natijasida yuzaga kelganligi oydinlashtirilgan hamda ushbu ta'sirlanish omillarining axloqiy-tarbiyaviy jihatlariga alohida ahamiyat berilgan;

jahon she'riyati va Sharq mumtoz adabiy an'analarning zamonaviy badiiy tafakkur kontekstidagi davomiyligi, Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir hamda Farida Afro'z she'riyatida ixchamlik tomon borilayotgani, ularning kam so'z bilan ko'p ma'no bayon qilish yo'lidagi badiiy izlanishlari va individual poetik mahorati o'zbek she'riyatidagi shakliyl izlanishlarning samaradorligini ta'minlab, she'riyatni vazn va mazmun tomondan yangilaganligi dalillangan;

Sirojiddin Sayyid ijodidagi kichik lirik she'rlarning o'ziga xos xususiyatlari, sho'irning poetik dunyoqarashi, Mahmud Toirning lirik she'rlar yozishdagi uslubiyl izlanishlari, she'rlarning genetik jihatdan mumtoz she'riyat va folklor bilan uyg'unligi, Farida Afro'zning ixcham she'rlaridagi o'ziga xos shakliyl izlanishlari hamda falsafiy mazmun, milliy ohang oydinlashtirilgan;

Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z she'riyatidagi kichik lirik shakllarning o'ziga xos ohangi, poetik tizimi, tuzilishi, badiiy san'atlardan foydalanish mahorati o'rganilganda hikmatga, aforizmga yo'g'irilganligi, ixcham misralar mohiyatiga ulkan ma'nolar jamlangani, ularda vazn, qofiya, ritm, band kabi she'r unsurlarida yangi izlanishlarning yuzaga kelganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik lirik shakllarning zamonaviy o'zbek she'riyatidagi takomili Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z ijodini qiyosiy o'rganish orqali aniqlangan.

Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z she'riyatida ixchamlik tomon borilayotgani, ularning kam so'z bilan ko'p ma'no bayon qilish borasidagi badiiy izlanishlari, zamonaviy o'zbek she'riyatidagi kichik lirik shakllar takomilida folklor, jahon va SHarq mumtoz adabiyoti adabiy an'alarining ta'siri muhim omil ekanligi yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy va nazariy ma'lumotlar, she'riy shakllar bo'yicha tahlillar, xulosalar tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, qiyosiy-tipologik, struktural va adabiy-estetik tahlil usullariga asoslanganligi, nazariy mushohada va takliflarning amaliyotda qo'llanilganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotdagi natijalar va ilmiy-nazariy xulosalar lirikada kichik janrlarning takomili hamda poetik xususiyatlarini adabiy jarayon bilan hamohanglikda hamda zamonaviy o'zbek she'riyati taraqqiyot tamoyillarini yaxlit o'rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishda tahlil etilgan ilmiy muammolar echimi, materiallar va xulosalar oliy ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklaridagi «She'riyat nazariyasi» fanini o'qitishda qo'shimcha material sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

«Hozirgi o'zbek she'riyatida kichik lirik shakllar takomili (Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Farida Afro'z ijodi misolida)» mavzusidagi ilmiy tadqiqot jarayonida olingan ilmiy natijalar quyidagicha joriy qilingan:

kichik lirik she'riy shakllarning ilmiy-nazariy jihatlariga jahon va o'zbek olimlarining munosabati hamda ilmiy qarashlari o'rganilib, zamonaviy adabiy jarayon mahsuli sifatida yuzaga kelgan kichik lirik shakllar struktural-semantik xususiyatlariga ko'ra yangi badiiy-estetik hodisa ekanligi bugungi adabiy jarayon fonida dalillangan ilmiy-nazariy qarashlardan F3-2016-0908165532 – «Qorakalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi» (2017-2020) fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022 yil 10 avgustdagi 195-son ma'lumotnomasi). Natijada Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z she'riyatining o'ziga xos jihatlar, zamonaviy she'riyatda badiiy izlanishlar tadriji, adabiy muhit va boshqa omillarning bu boradagi roli, shoirlarning mumtoz so'z san'ati, an'ana va tajribalaridan o'rganishi, ilxomlanishi, poetik obraz yaratish, ohorli tashbehu timsollar topish, so'z va iboralar qo'llashdagi mahorati, ular ijodining adabiyotshunoslik, san'at hamda ma'naviyat singari sohalar bilan bilvosita bog'likligi, shoirlar ijodida badiiy yaxlitlikning salmog'ini oydinlashtirish va she'rlar tahlili, janriy hamda shakliy xususiyatlarini tahlil qilishning metodologik tamoyillarini yangilashga hamda hozirgi o'zbek she'riyatidagi kichik lirik shakllarning badiiy evolyusiyasi bosqichlari aniqlanib, she'r matnlarini tahlil qilishning metodologik tamoyillarini yangilashga erishilgan;

she'riyatdagi kichik lirik she'riy shakllar, bir tomondan, xalq og'zaki ijodi, ikkinchidan, jahon adabiyotining ta'siri, uchinchidan, sharq mumtoz she'riyati an'alaridan ijodiy oziqlanish natijasida yuzaga kelganligi hamda ushbu ta'sirlanish omillari axloqiy-tarbiyaviy jihatlariga alohida ahamiyat berilganligi yuzasidan olingan xulosalardan FA-F1-OO5 «Qoraqalpog' folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish» (2017-2020) fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022 yil 10 avgustdagi 196-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy o'zbek she'riyatidagi kichik lirik shakllarning badiiy evolyusiyasi bosqichlari aniqlanib, she'r matnlarini tahlil qilish tamoyillarini oydinlashtirishga erishilgan;

jahon she'riyati va SHarq mumtoz adabiy an'alarining zamonaviy badiiy tafakkur kontekstidagi davomiyligi, Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir hamda Farida Afro'z she'riyatida ixchamlik tomon borilayotgani, ularning kam so'z bilan ko'p ma'no bayon qilish yo'lidagi badiiy izlanishlari va individual poetik mahorati o'zbek she'riyatidagi shakliy izlanishlarning samaradorligini ta'minlab, she'riyatni vazn va mazmun tomondan yangilaganligi dalillangan ilmiy-nazariy qarashlarga asoslanib, I.V.Savitskiy nomidagi badiiy san'at muzeyida rangtasvir yo'nalishidagi portretlar ma'nolari bo'yicha ko'rgazmali va ekskurs darslar tashkil qilingan, shuningdek, so'z va rangtasvir san'atida voqelikni badiiy ifoda etish usullari

mushtarakligiga doir qarashlar ilmiy-nazariy anjumanlarda ma'ruzalar orqali e'lon qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022 yil 12 avgustdagi 2–02/1008-son ma'lumotnomasi). Ushbu xulosalar zamonaviy she'riyatda paydo bo'lgan kichik lirik she'riy shakllarning badiiy-estetik mohiyati rangtasvir ijodkorligi bilan mushtarak negizga egaligini dalillashga asos bo'lgan;

Sirojiddin Sayyid ijodidagi kichik lirik she'rlarning o'ziga xos xususiyatlari, shoirning poetik dunyoqarashi, Mahmud Toirning lirik she'rlar yozishdagi uslubiy izlanishlari, she'rlarning genetik jihatdan mumtoz she'riyat va folklor bilan uyg'unligi, Farida Afro'zning ixcham she'rlaridagi o'ziga xos shakliy izlanishlari hamda falsafiy mazmun, milliy ohang oydinlashtirilganligi hamda Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z she'riyatidagi kichik lirik shakllarning o'ziga xos ohangi, poetik tizimi, tuzilishi, badiiy san'atlardan foydalanish mahorati o'rganilganda hikmatga, aforizmga yo'g'irilganligi, ixcham misralar mohiyatiga ulkan ma'nolar jamlangani, ularda vazn, qofiya, ritm, band kabi she'r unsurlarida yangi izlanishlarning yuzaga kelganligi aniqlangani haqidagi nazariy umumlashma xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi vaqtli matbuoti nashrlarida, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar, jumladan, «Assalao'ma alyukum, Qaraqalpaqstan!», «Adebiyat ham dao'ir» ko'rsatuvlarida hamda radiokanalning «Ruo'xaylyq bostany» kabi eshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2022 yil 23 avgustdagi 05-22/508-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv va eshittirishlar ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasi oshgan va ilmiy tadqiqot natijalari keng jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib etilgan.

Ilmiy tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika ilmiy-amaliy, 5 ta xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, ularning 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot ishining hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiya mavzusining o'rganilish darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Kichik lirik shakllarning ilmiy-nazariy asosi va adabiy manbalari**» deb nomlangan bo'lib, unda jahon va o'zbek

adabiyotshunos olimlarining kichik lirik janrlar xususidagi fikrlari, kichik lirik janrlar genezisi yuzasidan fikr-mulohazalari bayon qilinadi. Bobning birinchi fasli «**Kichik she'riy shakllar va folklor**» deb nomlanadi va unda kichik lirik janrlar genezisini tadqiq etish orqali ob'ekt shoirilar ijodiga metodologik tomondan yondashiladi, kichik lirik she'riy shakllarning xalq og'zaki ijodi janrlaridan ta'sirlanish omillari bilan uyg'un ravishda tahlil qilinadi.

Hozirgi jahon adabiyotshunosligida adabiy janrlar shakllanishi va yangi lirik shakllar yuzaga kelishida ijodkor badiiy mahoratining o'rni masalasini poetik tafakkur evolyusiyasi bilan bevosita bog'liqliqda tadqiq etish tamoyili kuchaydi. O'zbek adabiyotida mustaqillik sharofati tufayli hozirgi kunda milliy adabiyotning g'oyaviy-badiiy mundariyasi va barcha janrlarida ro'y berayotgan takomillashish, teranlashish hodisasi tobora kengayib, kuchayib bormoqda. SHu bois o'zbek she'riyatida ham «kichik lirik shakllar» istilohi qo'llanila boshladi. SHu nuqtai nazaridan kichik lirik shakllarni o'rganish, tadqiq qilish bugungi adabiyotshunoslikdagi dolzarb masalalardandir. Ma'lumki, lirikaning kichik hajmli she'rlari kichik lirik she'rlar deb yuritiladi. Bunday she'riy shakllar haqida jahon va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida bir qancha nazariy fikrlar mavjud. SHuningdek, qadim o'tmish tarixi yaqin, urf-odatlar va milliy an'nalari bir biriga bog'lanib ketgan turkiy xalqlar madaniyati, san'ati, adabiyoti tarixida ham uyg'unlik mavjud. Ularning barchasi uchun qadrli bo'lgan xalq og'zaki ijodi, turkiy yozma yodgorliklar, mumtoz adabiyoti tarixida lirik turning har xil kichik janrlari uchraydi va bu masalalarda ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan¹².

Adabiyotshunos Q.Yo'lchiyev ta'kidlashicha, she'r hajm jihatidan kichik bo'lsa-da, unda teran ma'no ifodalanadi. SHE'riyatda kichik lirik shakllarning birlik, ikkilik, uchlik, to'rtlik kabi turlari mavjud. SHuningdek, olim o'zbek she'riyatidagi birlik va uchliklarning umumiy hamda farqli jihatlarini, poetik xususiyatlari, o'zbek xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotiga bog'liqligi, o'zbek she'riyatidagi uchliklar koreys she'riyatidagi uchliklar bilan tipologik munosabatda ekanligi, yapon she'riyatidagi xaykular bilan adabiy ta'sirga egaligi, birliklar tasnifi, ularning ijtimoiy muammolarni yoritishdagi ahamiyati, lirik voqelikning kulminatsion nuqtasinigina ifodalashi kabi masalalarni yoritgan¹³.

Filologiya fanlari doktori O.Gaylieva o'z tadqiqot ishida kichik lirik she'riy shakllarni qiyosiy tahlil qilgan, zamonaviy o'zbek she'riyatida to'rtlik, uchlik, ikkilik, hatto, bir misradan iborat she'riy shakllar paydo bo'lganligi, ularning o'ziga xos jihatlarini, kompozitsiyasi, mazmuni, ohangi, ramziy qatlami, fonologik xususiyatlari bilan mumtoz kichik janrlardan farq qilishi, zamonaviy o'zbek she'riyatidagi kichik lirik shakllarning maydonga kelishida bu hodisaning genezisi bevosita turkiy xalqlar og'zaki ijodiga, mumtoz adabiyot sarchashmalariga, eng

¹² Бу ҳақда қаранг: Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент, 1976; Ҳаққул И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Тошкент: Фан, 1981; Хўжанова Г. “Ҳибатул ҳақойик” ҳақиқатлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001; Афокова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва қитъа. – Тошкент: Фан, 2005; Маматкулов М. Қадимги туркий адабиётда гўрлик ва марсия. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

¹³ Илчиёв Қ. Ўзбек шеърисиндаги бирлик ва учлик шеър поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 16.

muhimi, ayrim zamonaviy kichik she'riy shakllar jahon she'riyatidan o'rganish tajribalariga bog'liqligi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari suradi¹⁴.

Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi kichik lirik shakllar genezisi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi va shoirlar o'z ijodida folklor namunalaridan ustalik bilan foydalanilganligi kuzatiladi. She'riy asarlar tilida maqollar obraz chizishda qulay vositadir, ular badiiy nutqda alohida qiymatga molik¹⁵. Manbalarda keltirilishicha, mumtoz adabiyotda maqollardan foydalanish «irsoli masal» san'atini yuzaga keltirgan. Jumladan, shoir Mahmud Toir to'rtliklarida ham xalq maqollari keng qo'llanilgani kuzatiladi:

So'z sovurma nodon oldida,
YAxshi yotdir yomon oldida.
Etti o'lchab bir kesmaganlar,
Boshi xamdir vijdon oldida.¹⁶

Ushbu to'rtlikda xalq og'zaki ijodidagi «Yetti o'lchab bir kes» maqolini ijodkor she'r mazmuni va shaklidan kelib chiqqan holda, o'zgargan shaklda qo'llagan. «Lisonning badiiy voqelanishi keng qamrovli, u o'zida boshqa uslub xususiyatini erkin aks ettirishi bilan me'yoriy «erkinlik»ka egaligini ko'rsatadi»¹⁷. Albatta, she'riyatda ijodkor erkinlikka intiladi. Shu bois shoirga maqollarni o'zgartirish imkoni beriladi. Mahmud Toir yuqoridagi to'rtligida «Yetti o'lchab bir kes» maqolidan maqollarni erkin ko'llash, ya'ni ularni shaklan o'zgargan shaklda qo'llashining sabablaridan biri bo'lmish badiiy va g'oyaviy maqsaddan kelib chiqqan holda foydalangan. Misrada maqol «Yetti o'lchab bir kesmaganlar» tarzida qo'llanilib, «kes» fe'li she'rda «kesmaganlar» tarzida ishlatilgan. SHuningdek, to'rtlikda nodon kishi oldida ko'p so'zlashning hojati yo'qligi, yaxshilar hech qachon yomonlik qilmasligi, maslahatlashilgan holda bajarilmagan ishning oqibati besamar bo'lishi, keyin ming afsus tortishi, azoblarda qiyinalib yashashi kabi ruhiy kechinmalari aforistik mazmunda maqol vositasida badiiy ifodalanadi. Ushbu aforistik mazmun to'rt misrada ifodalanib, unda a-a-b-a shaklidagi radifli qofiya qo'llanilgan.

Shuningdek, ushbu faslda xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotning tarkibiy qismi bo'lgan kichik lirik she'rlar, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar, ruboiy, tuyuq, fard, qit'a kabi janrlar va shakllar zamonaviy o'zbek shoirlari Sirojiddin Sayyid, Farida Afro'z ijodi doirasida qiyosiy tadqiq etildi.

Bobning «Kichik she'riy shakllar hamda jahon va SHarq mumtoz she'riyati adabiy an'analari» deb nomlangan ikkinchi faslida zamonaviy o'zbek shoirlarining kichik lirik she'rlaridagi ba'zi jihatlar dunyo, SHarq mumtoz she'riyati, xususan, ayrim kichik lirik janrlar tabiati qiyosiy-tipologik asosda tahlilga tortiladi.

¹⁴ Гайлисва О. Ғарезсизлик даури туркий халыклар лирикасында формалық изленислер ҳам олардың типологиясы (өзбек, каракалпак ҳам түркмен лирикасы мысалында): Филол.фан. д-ри ... дисс. – Некис, 2019.

¹⁵ Иудосhev M. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 47.

¹⁶ Махмуд Тоир. Уйғоқ дил. Шеърлар. – Тошкент: HILOL NASHR, 2019. – Б. 133.

¹⁷ Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2018. – Б.40.

Ma'lumki, badiiy adabiyotdagi yangilanishlar mavjud an'analarni mukammal o'zlashtirish natijasida maydonga kelib, bu holatning ilmiy-nazariy jihatdan evolyusiyasi hech qachon jamiyatdan, ma'naviyatdan, ayniqsa, iste'dodli shaxslardan ayrilgan holda yuz bermasligi ayni haqiqatdir. Zamonaviy o'zbek shoirlari G'arb adabiyotidan, xususan, she'riy shakllaridan ta'sirlanishi, ulardagi yangiliklarga ergashish masalasi haqida professor U.Normatov: «Ma'lumki, o'zbek adabiyoti ming yillar davomida aynan SHarq xalqlari adabiyoti an'analari doirasida, asosan arab, fors, qisman, hind adabiyotlari bilan hamkorlikda, islom dini falsafasi, tasavvuf ta'limoti ta'sirida rivojlandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida u yangi bir ma'naviy olamga, Ovropa madaniyati, adabiyoti tajribalariga yuz o'gira boshladi. Davrning taraqqiyparvar siymolari har bir sohada yangilanishga chuqur ehtiyoj sezidilar va bu yo'lda faol harakat qildilar» - deya, fikr bildirgan edi¹⁸. Biz ham olimning fikrlariga qo'shilgan holda hozirgi o'zbek shoirlari Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z ijodida XX asr dunyo adabiyotidan, xususan, G'arb she'riyatidagi ilg'or tajribalardan ijodiy ta'sirlanganligini kuzatdik. Chunki, ushbu shoirlar she'riyatidagi kichik lirik shakllarga xos mushtaraklik jahonning boshqa xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyotiga ham xos belgilardan sanaladi.¹⁹

She'riy janrlar juda ulkan kategoriya sifatida Sharq va G'arbda yaratilgan she'riy janrlarga bo'linishi mumkin. G'azal, muxammas, qasida, tarji'band, tuyuq, ruboiy, fard kabi bir qator janrlarni SHarq adabiyotiga bog'lab tushuntirish va muhokama qilish o'rinlidir. Sonet, romans, verlibr va shu tipdagi bir qancha she'riy janrlar borki, ularni G'arb adabiyoti negizida tadqiq qilish to'g'ri bo'ladi. Biroq keyingi yillarda G'arb va Sharq, dunyo she'riyatidagi ayrim janrlarning o'zaro integratsion, qorishiq-sintez jarayoni ham kuzatilmoqda. Zamonaviy shoirlar ijod namunalarida sharqdan ham, g'arbdan ham ta'sirlanish holatlarini kuzatish mumkin. Zero, o'z navbatida, aruz vazniga asoslangan she'riy janrlar bilan parallel ravishda XX asr boshlarida dunyo she'riyatida keng qo'llanilgan barmoq vaznidagi she'riy shakl, ya'ni har bir misraning unli tovushlarga asoslangan sanoqlari va turoqlanish negizi bu she'riy shakl asosi edi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda tobora ommalashgan o'zbek she'riyatidagi uch misradan tarkib topgan she'riy shakllarni, albatta, bir tomondan o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari yoki xalq og'zaki ijodiga bog'lash ham mumkin. Ammo bir qator shoirlar ijodiga mansub uch misradan iborat she'rlarni yapon she'riyatidagi xayku-xokkular bilan uyg'un holda tahlil qilish yana ham o'rinni bo'ladi. Bu janrga adabiyotshunoslik manbalarida: «Xokku, xayku (yaponcha «ilk misralar») – yapon she'riyatidagi an'anaviy qat'iy she'riy shakl, lirik janr deb ta'rif beriladi. Xayku uch misradan tashkil topib, birinchi va uchinchi misrasi besh bo'g'inli, ikkinchi misrasi esa etti bo'g'inli o'Ichovda bo'ladi, bu jihatdan u tankaning dastlabki uch misrasi bilan bir xil bo'lib, she'rning asosiy fikri aks etgan «ilk misralar» xayku

¹⁸ Normatov U. Ijodkorning xaroratli suzi. – Toshkent: Turoq zamin ziyo, 2015. – B. 70.

¹⁹ Бу хақда қаранг: Кузьмин Д.В. История русского моностиха: Дисс. канд. филол. наук. – Самара, 2004. – 284 с.; Ўша муаллиф. Жанр в русском моностихе // Жанрологический сборник. – Вып. 1. – Елец, 2004. – С.100-106; Конохова Л.Н. Формально-содержательные модификации моностиха в русской литературе XX в.: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2009.

nomli qat'iy she'r shakli sifatida asoslangan»²⁰, degan fikr ifodalanadi. Biroq o'zbek shoirlari o'z tajribalarida bu janrga xos qoidaga amal qilishmagan. SHu bois o'zbek she'riyatidagi uchliklarga alohida adabiy hodisa sifatida qarash lozim. SHu o'rinda zamonaviy o'zbek she'riyatidagi kichik she'riy shakllar nomlanishida ham turli-tumanlik mavjudligi, bir hodisaning bir necha nomlari uchrashi kuzatiladi. Bu atamalar asosan o'sha ijod namunalari mualliflari tomonidan tanlangan nomlar bo'lib, atama mohiyati ba'zida nazariy qonun-qoidalariga mos kelmasligi ham mumkin.²¹

Mumtoz adabiyotda har bir bandi uch misradan tarkib topgan she'riy shakla «musammat», ya'ni uchlik deyiladi. Faqat uch misradangina iborat bo'lgan she'riy shakl zamonaviy o'zbek she'riyatida «uchlik» nomi bilan yuritiladi. Ular tabiiyki, bir jihatdan, mumtoz shoirlar ijodiga mansub she'riy shaklning uzviy davomi bo'lsa, ikkinchidan, ularni jahon adabiyotida mavjud uch misradan iborat bo'lgan «xayku» janriga bog'lash ham o'zbek shoirlari ijodidagi kichik janrlarning paydo bo'lishiga jahon she'riyati, xususan, yapon shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar o'z ta'sirini ko'rsatganligi haqida fikr yuritish mumkin.

Tarixiy tajribalar bilan bir qatorda zamonaviy o'zbek she'riyatiga nazar tashlasak, oradan yillar o'tgani sari she'riyat ham yangidan yangi shakliy-uslubiy mazmun bilan boyib borayotganligi kuzatiladi. Binobarin, bu, avvalo, zamonaviy ijodkorlarning Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk shoirlarga ergashishi, o'rganishi va ulardan ixchamlik badiiyatini o'zlashtirganliklari natijasida, ikkinchidan, dunyo adabiyotini puxta mutolaa qilish hamda undan ta'sirlanishlari samarasida yangi kichik lirik shakllar maydonga kelayotganligi dalolatidir. Demak, zamonaviy o'zbek she'riyatdagi ikkilik va boshqa kichik janrlar genezisini shu kabi omillardan qidirish o'rindirish.

Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi ikkiliklar tabiatan ixchamligi, hikmatlar bilan yo'g'irilganligi va badiiy san'atlar keng qo'llanilganligi bilan janriy jihatdan mumtoz fardlarga yaqin turadi. Aslida ixcham bayon nafaqat shoirlar, balki so'z zargari bo'lgan Abdulla Qahhordek adiblarning ham e'tiborini o'ziga tortgan edi. Yozuvchi bu xususda, jumladan, shunday yozadi: «Ikki satr she'rda berilgan fikrni ming xil qilib aytsa bo'ladi, lekin bu ming variantning hech qaysisi shu ikki satrday (agar u haqiqiy she'r bo'lsa) ham sodda, ham qisqa, ham kuchli, ham ta'sirli bo'lmaydi. Bunday vazn bilan qofiya ham «to'g'ri so'z»ni she'r qilish uchun emas, shu fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lib qoladi»²². Darhaqiqat, S.Sayid ikkiliklarida ham vazn va qofiya «fikr ifodasi uchun zarur» bo'lganligi seziladi. Ma'lumki, mumtoz shoirlar umrning o'tayotganligini tabiatdagi fasllarga o'xshatishadi. S.Sayyid ham o'z she'rlarida bu g'oyani metaforik usulda mohirona bayon qiladi:

²⁰ Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик дугати. -Тошкент: Академнашр нашриёти, 2010. -Б.350.

²¹ Гайлиева О. Мустақиллик даври туркий халқлар лирикасида шаклий изланишлар ва уларнинг типологияси (Ўзбек, қорақалпоқ ва туркман лирикаси мисолида): Филол. ф. д-ри дисс. автореферати. - Нукус, 2019. - Б. 24.

²² Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 5 жилдлик. 5- жилд. "Ҳақ сўзининг кучи". Мақолалар, суҳбатлар, қайдлар. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. - Б. 21.

«O'tdi ellik chog' umrdin, kuzga yetdi endi ish,
Bog'lar ortidan og'ir-og'ir yaqinlashmoqda qish».

Ellik yoshga borgan odam, o'zini, o'zligini chuqur anglagan kimsa, tabiiyki, o'z umrining kuzi kelganini teran anglaydi. Ayni damda S.Sayyid aytmoqchi: kuz izidan, sarg'aygan yaproqlar izidan «og'ir-og'ir», sekin-asta qish yaqinlashadi. Bu allohning irodasi. Dunyoga kelgan har bir odam borki, vaqti kelib bu olamdan ketadi. Ammo kelish va ketishning xuddi tabiatda fasllar ketma-ketligi kabi o'z mezonlari, qonuniyatlari va tartibi bor. SHoir buni chuqur his qiladi.

Shuningdek, ushbu faslda ob'ekt shoirlar ijodidagi kichik lirik shakllar: to'rtlik, uchlik, ikkilik, va birliklar qiyosiy tahlil qilinadi hamda shoirlar ijodidagi o'ziga xos xususiyatlar, ifoda uslublari oydinlashtiriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Kichik lirik shakllar: ijodiy izlanish va tajriba sintezi**» deb nomlanib, unda ob'ekt shoirlar ijodidagi kichik lirik she'rlarning o'ziga xos xususiyatlari, shoirlarning mahorat qirralari, ixcham she'rlaridagi o'ziga xos shakliy izlanishlar hamda falsafiy mazmun o'rganiladi. Bobning «**Sirojiddin Sayyid kichik she'riy shakllarining g'oyaviy-estetik mohiyati**» deb nomlangan birinchi faslida shoir ijodiga mansub kichik lirik she'rlarning g'oyaviy-estetik mohiyati yoritiladi, ijodkorning individual uslubi aniqlanadi. S.Sayyid she'rlarining badiiy-estetik mazmunida rang-baranglik mavjud. Ushbu rang-baranglik va obrazli ifodani yuzaga keltirishda ijodkorning badiiy izlanishlari katta ahamiyat kasb etadi. Rang-baranglik deganda she'r mazmuni, shoirming ruhiy holati hamda kichik bir she'rning ijtimoiy mohiyat kasb etishi nazarda tutiladi. S.Sayyid ikkiliklarida mazmun hamda muallif ruhiy holatining uyg'unligi she'r shakliga mos ravishda ifodalanganligi ko'zga tashlanadi. SHoir ikkiliklarida hayotiy manzarani ruhiy holat teranligiga yo'naltirish malakasi hukmronlik qiladi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida mumtoz adabiyotdagi fardga mos keladigan hamda shoirlar kayfiyatini o'ziga xos ixcham usulda ifodalagan ikki misradan tarkib topgan she'riy shaklning ko'plab uchrashi adabiy jarayon uchun tabiiy hol sanala boshladi. SHoirlar ijodidagi yangilanishlarda mumtoz adabiyot an'alarining davom etganligi va rivojlantirilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Sirojiddin Sayyid ijodidagi to'rtliklarda ham mumtoz poetik an'alar davom ettirilganligini ko'rish mumkin:

Ko'zlaring yanglig' bu olam ichra chiston topmadim,

Yuzlaring yanglig' biror sham'i shabiston topmadim.

Yo'q erur yorug jahonda sochlaring yanglig' shamol,

Ham sening qo'yning kabi dunyoda bo'ston topmadim.²³

Shoir mumtoz o'zbek shoirlari an'alariga xos tarzda she'rda hijronini, yorga sadoqatini ifodalaydi. Bu misolda Alisher Navoiy, Bobur adabiy an'alarining rivojlantirilganligi ko'zga tashlanadi. Mumtoz shoirlar g'azallarida mavzu, g'oya, lirik qahramonning yoriga vafodorlik tuyg'ularini ifodalashda mushtaraklik mavjud. Shunday poetik ifoda usuli Sirojiddin Sayyid to'rtligida esa an'anaviylikdan yangilanish tomon borgani kuzatiladi. Ulug' mumtoz adiblarning

²³ Sirojiddin Саййид. Асарлар. II жилд. - Тошкент, 2018. - Б. 26.

dardlariga hamohang, ayni damda yangilangan ko'rinishdagi bayoni, mumtoz poetik badiiy san'atlardan o'rinli foydalanib, yangilikka intilganligi, ya'ni yor portretini («ko'z, yuz, soch»)larini chizishda an'anaviylikdan yangilangan ifodani yuzaga keltiradi. Mumtoz shoirlar g'azallarida diniy-falsafiy mazmun aks ettirib, lirik qahramon o'z jamolini topolmay qidirib yurgan darvesh kabi ifodalansa, S.Sayyid to'rtligida yor jamoli olamga, yuzi sham'i shabistonga, sochi shamolga mengzaladi, o'xshatish san'atidan mohirona foydalaniladi. Natijada, ushbu to'rtlik bir jihatdan an'anaviy bo'lsa, ikkinchidan, zamonaviy o'zbek adabiy tilidagi ifoda yo'sinini, uchinchidan esa, she'r ruhiyatidagi yangilanishni anglash mumkin. Aslida, adabiy-nazariy jihatdan har qanday badiiy asar mazmunidagi yangilanish shakliy izlanishlarga olib keladi. SHu bois Sirojiddin Sayyid to'rtligini shoirming shakliy izlanishlari samarasi deb baholash mumkin.

Ushbu faslda Sirojiddin Sayyid ijodidagi ikkiliklar ham tahlilga tortiladi, shoir she'riyatiga real voqelik ta'siri, ijtimoiy-madaniy dunyoqarash tig'iz aloqaga kirishib, undagi o'zgacha poetik kuzatish, yangi kayfiyat va o'ziga xos ifodaga intilishda milliy mumtoz adabiy an'analar davomiyligi yorqin namoyon bo'ladi.

Bobning «**Mahmud Toir she'rlarida kichik lirik shakllarning o'ziga xos tabiati**» deb nomlangan ikkinchi faslida Mahmud Toir ijodidagi kichik lirik she'rlarda adabiy talqinning o'ziga xosligi, shoirming obrazli tafakkuri, she'rlarning genetik jihatdan mumtoz adabiy an'analar va xalq ijodiyoti bilan uyg'unligi borasida so'z yuritilgan.

Mahmud Toir ijodida ilg'or falsafa yetakchilik qiladi, fitratida mumtoz an'ana va ilg'or tajriba o'zaro sintezlashadi. Tuyg'u, hayotiylik darajasidan yangi poetik ma'no va o'zgacha falsafiy-badiiy umumlashma hosil qilish mayli shoir adabiy talqinida o'ziga xos tarzda gavdalanadi. Shaxs ruhiyatiga daxldor nozik sezimni o'ziga xos ifoda teranligida tasvirlay olish mahorati shoir individulligini kashf etadi. Mahmud Toir kichik lirik shakllarida so'zda tazodiy munosabat tig'izlashuvi, erkinona idrok uslubi ko'zga tashlanadi. Shoir mahorati she'riy fikr ta'sir quvvatini oshirish jarayonini ilg'ash, sezish hamda tushunish bosqichlarini bir-biri bilan ulashga va tasavvur tahlilida birlashtirishga harakat qiladi. Uning she'rlarida obrazli tafakkur tahlili ma'naviy mezon darajasiga ko'tariladi. Shoir qalamiga mansub ikkilik hamda to'rtliklarda soddalik, tabiiylik, xalqchilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Mahmud Toir ijodida to'rtliklarning keng qo'llanilganligi kuzatiladi. SHoir she'rlari hajm jihatdan ixcham bo'lsa ham, ularda teran ma'no va mazmun mujassamligi hamda mumtoz an'analar davom ettirilganligi va rivojlantirilganligi bilan xarakterlidir.

Bobning «**Farida Afro'z she'rlarida shakliy izlanishlar**» deb nomlangan uchinchi faslida Farida Afro'zning ixcham she'rlaridagi o'ziga xos shakliy izlanishlar hamda falsafiy mazmun tadqiq qilindi.

Farida Afro'z adabiy tajribalari, yangicha she'riy shakllari xususida professor Q.Yo'ldoshev quyidagicha fikr yuritadi: «Farida Afro'z tasbehlarida kam so'zli misralar yordamida chuqur ma'noni ifodalashga erishadi. Qizig'i shundaki, barcha tasbehtar uch satrdan iborat bo'lsa ham ularning ichki qurilishi, joylashuv

yo'sini va bo'g'inlar miqdorida qat'iy bir xillik yo'q»²⁴. SHuningdek, olim «tasbeh» ilgari poetik atama sifatida qo'llanilmagani, Farida Afro'z o'z uchliklarini tasbeh shodasidek tizib, tasbehni she'riy janrga aylantirib, badiiylashtirganligini ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, bu ham Farida Afro'z uchliklariga xos asosiy xususiyatlardan biridir.

«Haq, do'st, yo Olloh!»

Bu bir satr she'r.

Hali hech shoir bundan o'tkazib aytolmadi».

Odatda kichik she'riy janrga moyillik ijodkorning tabiatida mavjud bo'lmog'i lozim. Farida Afro'z uchlik janrida ijod qilar ekan, uning hissiy fitrati shunga moyil bo'lgan. YUqorida berilgan, darveshlar ko'cha-ko'yda takrorlab yuradigan «Haq, do'st, yo Olloh!» munojotiga shoira munosabatidan aynan shu moyillikni sezish qiyin emas. «Haq, do'st, yo Olloh!»ni shoira bir misradan iborat she'r deb baholashni ma'qul ko'radi. Aslida, ijod ahlining qarashlarini, she'riy dunyosini ularning o'zlari yozgan asarlar mohiyatidan kelib chiqqan holda munosabat bildirish mumkin. Farida Afro'z uchliklariga nazar tashlasak, xalqona pafos, xalq matalari va maqollarini o'z she'riy tafakkuri vositasida qayta muhokamadan o'tkazgan holatlarni ilg'ashimiz, shubhasiz. Farida Afro'z ijodidagi uchliklar ayni kichik janr imkoniyatlarini kengaytirgani, ularga xalqona pafos, hayotiy-falsafiy mazmun bag'ishlagani, uchliklar qo'proq erkin vaznga asoslangani ham shundan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning «**Kichik lirik shakllarning badiiy xususiyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida zamonaviy o'zbek she'riyatining tarkibiy qismi bo'lgan kichik lirik she'riy shakllarning poetik xususiyatlari, yondosh adabiy hodisalar bilan garmoniyasi, poetik so'z va obraz munosabati, xususan, shoirlar mahoratlari, izlanishlari, she'rlarning shakldiy-uslubiy jihatlarini tizimli ravishda tahlil qilindi.

Bobning «**Kichik lirik shakllarda qo'llangan badiiy san'atlar**» deb nomlangan birinchi faslida ob'ekt shoirlarning kichik lirik she'rlarida Sharq poetikasiga doir badiiy san'atlardan foydalanish mahoratlari yoritilgan.

Badiiy san'atlar o'z navbatida kichik lirik shakllarda ham keng qo'llanilib, ular she'rning kompozitsion tuzilishida, ma'no ifodasida katta ahamiyat kasb etadi. Sirojiddin Sayyidning:

Dunyoga keldingu ketgaysan qachon?

Ezgulik naqshini bitgaysan qachon?

Neki bor, etishding yelib-yugurib,

Ey inson, o'zingga yetgaysan qachon?²⁵

to'rtligida so'roq ohangida tuzilgan epiforalar (qachon?) shoir kechinmalarida bayon qilgan qarashlariga emotsional tus beradi. SHoir ritorik so'roq qo'llash orqali o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qiladi. To'rtlikda olam, hayot mazmuni, odamzod haqidagi falsafiy mushohadaning shoir ijodida mohirona tarzda bosqichma-bosqich rivojlanib borganini kuzatish mumkin. Ya'ni, shoir inson, umr,

²⁴ Иўддошев К. Ёник сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 540.

²⁵ Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Sharq, 2018. – Б. 364.

hayot haqida fikr yuritar ekan, odamzodning yorug' olamga kelishi shukronalik g'oyalari orqali ifodalansa, insonning baxtli yashashi va baxtga erishishi Alloh tomonidan unga berilgan in'om deb tushuniladi, inson bu dunyoda o'zidan yaxshi nom qoldirishi kerakligi kabi falsafiy g'oyalar e'tirof etiladi. Bu jarayon shoir badiiy izlanishlari natijasi o'laroq, to'rtlik turkumlarida badiiy g'oya hajmining so'z zargari – ijodkor «men»ining shaxsiy kechinmalaridan teranlashib, ko'p holatlarda poetik usullar orqali umummilliy, ba'zan esa umuminsoniy mazmunda yuzaga chiqishi ko'zga tashlanadi.

Farida Afro'z o'z ijodida she'riy mantiqqa hamda ichki ritmga alohida e'tibor beradi. SHoiraning uchliklari ko'pso'zli emas. Gohida bitta so'z bir misrani tashkil etadi:

«Bahor keldi,

Ajabo,

Tuvakdagi gul ham uyg'ondi»²⁶.

Bu uchlikda lirik qahramon hayrati ikki misra oralig'ida joylashgan bitta «Ajabo» so'zida mujassamlashgan. Shoir uchliklarida o'ychanlik, mushohadakorlik seziladi.

Ushbu faslda Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z kichik lirik she'rilarida Sharq poetikasida mavjud badiiy san'at turlarini davr talabiga mos holda o'zgartirib, ba'zan o'sha tarzda qo'llaganliklari oydinlashtirilgan.

Bobning ikkinchi faslida «**Poetik so'z va obraz munosabati**» haqida so'z boradi. Rus olimi V.V.Kojinov fikricha: «She'rdagi so'zlar ichki harakati, ular ritmi va qofiyalararo o'zaro bog'lanishi va qiyosiy, she'riy nutqning lirik shaklini yuzaga keltirgan tovush tomondan yorqin ko'rinishi, ritmik va sintaktik jihatdan o'zaro aloqasi – shu kabi barcha sirli ma'naviy unsurlar she'r uchun muhim. Ammo nasr mohiyatiga ko'ra bunday emas»²⁷. Ma'lumki, asl she'riyat poetik mazmunga boy, ta'sirli, rang-barang badiiy tasvir vositalari asosiga qurilgan bo'ladi. Chunki she'rdagi kompozitsion struktura, shakliy o'ziga xoslik, so'z tanlash va ohang yo'lida qofiyalar topish – bularning barchasiga she'riyatning poetik unsurlari sifatida qaraladi. Bugungi adabiyotshunoslikda she'riy asarlar poetik mazmuni tekshirilganida shoirlarning badiiy san'atlardan metafora, metonimiya, o'xshatish, jonlantirish, epitet kabi ma'no ko'chirish usullaridan, bir qator tasviriy vositalardan qanday foydalanganligi ko'proq nazarda tutiladi. Biroq she'r poetikasi uchun bu elementlarning o'zi etarli emas. Deylik, aniq bir o'xshatish va o'xshatilmish predmet hamda detallar kichik she'riy shakllarda ham ma'lum ma'noda o'z badiiy vazifasini bajaradi.²⁸ S.Sayyidning badiiy izlanishlari samarasini «Umr fardlari» turkumida keltirilgan ushbu ikkiligida bir qator badiiy san'atlar qo'llanganini va uning lirik qahramoni ichki tuyg'ularini ifodalashda badiiy vazifa bajarganligini kuzatish mumkin. Masalan:

²⁶ Фарида Афруз. Ушшоқ. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 105.

²⁷ Кожин В.В. Поэзия и проза / Литературный энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1987. – С. 293.

²⁸ Гайлиева О. Ғарезизлик даъури туркий халықлар лирикасында формалық изленислер хэм олардын типологиясы: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Некис, 2019. – Б.160.

«Aytmangizkim, odamiydan hotamiylik istadim-
Odamiydan odamiyga odamiylik istadim».

Ushbu she'rdagi «odamiy» so'zining takrori «mukarrar» san'ati asosiga qurilgan bo'lib, «odamiy» so'zi ko'chma ma'noda «inson» ma'nosida kelayotgani, unga «-lik» qo'shimchasining qo'shilishi bilan ikki karra sifatlash kuzatiladi. Ikkilikning ikkinchi misrasida «o» tovushi takrori she'rning ohang bilan eshittirilishida katta ahamiyat kasb etadi. «Odamiydan odamiyga odamiylik». She'r matni tizimida bir misrada bir so'zning takrorlanishi bilan semantik ma'noni kuchaytirish, kitobxonning e'tiborini ushbu birlikka qaratishga erishilgan. SHoir semantik ma'noni kuchaytirishda gradatsiya usulidan foydalanadi. Butun tuyg'ularini bayon qilib, yaxshi fazilat insonga xos xususiyat ekanini «odamiylik» so'zi orqali izchillikda kuchaytirib yozadi. So'zning shu tarzda takrorlanishi bilan semantik ma'no kuchaytirilishini esa shoir individual stiliga xos sifat deb baholash mumkin. SHuningdek, shoir ushbu she'rdagi insonning bu dunyoda yashashdan maqsadi tinch-osoysiz turmush kechirib, atrofidagilarga yaxshilik qilib, o'zidan yaxshi nom qoldirishini «hotamiylik» so'ziga urg'u berish orqali ifodalaydi. Chunki, Sharq xalqlari adabiyotida «hotamiylik» ramzi Hotamtoy obrazida namoyon bo'lishi ma'lum haqiqat bo'lib, Hotamtoy obrazi SHarq xalqlari folklorida va mumtoz adabiyotda insonparvarlik, saxiylik timsoli sifatida gavdalanadi. Shoir odamiylik haqidagi qarashlarini o'sha obraz timsolida ifodalaydi. Ya'ni, Hotamtoy hayoti mobaynida el-yurtga yaxshilik qilgan, kim yordam so'rasa, undan yordamini ayamagan. Shu bois shoirning mazkur ikkiligidagi ma'no ifodasi mumtoz adabiyot bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlash lozim.

Faslida Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid, Farida Afro'z kichik lirik she'rlari qiyosiy tahlilga tortilib, ularda shoirning so'z qo'llash va mazmun ifodalash uslublari talqin qilinadi.

Bobning ikkinchi faslida «Kichik lirik shakllarda vazn va qofiya tizimi» muammosi xususida fikr yuritiladi. Kichik lirik shakllarda qofiya va vazn muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik lirik shakllarda qofiya va vazn tizimi masalalari tahlil qilinganida ijodkorlarning so'zga jiddiy ahamiyat berganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, Mahmud Toir to'rtliklari ijodiy o'ziga xosligi, badiiy xususiyatlari, ijtimoiy-falsafiy, didaktik masalalar talqini, badiiy san'atlar va timsol yaratish mahorati, vazn, qofiya, badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanishi bilan xarakterlanadi. Muhabbat va ishq singari abadiy an'anaviy mavzular talqinida, badiiyatning o'ziga xosligini ta'minlashda qofiya va vazn tizimining muvofiqligi, she'riy san'atlarning mahorat bilan qo'llanishi uning to'rtliklarini har tomonlama tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Shoirning «Uyg'oq dil» she'riy to'plamidagi «Poklanish ahdi bizdan, poklamoq Alloh dandir» deb nomlangan mumtoz poetika adabiy an'analari davomiyligini kuzatish mumkin. To'rtliklar asosan murojaat tarzida yozilgan:

Yaratganga ochib qo'limni,
To'rt satrga to'kdim dilimni.

Gar hikmatim sizga yor bo'lsa,
Yorug' qilsin Alloh yo'limni.²⁹

Bu to'rt misrali she'rda lirik qahramon Allohga murojaat qilib, o'z ijod yo'lida Yaratganning unga madadkor bo'lishini, yo'lini ochishini iltijo qiladi. She'rda «Yorug' qilsin» so'ziga urg'u berilib, fikrni badiiy ifodalashga erishilgan. Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotida Allohga murojaat qilish motivi keng qo'llanilgan. Shoir mazkur she'rda «To'rt satrga to'kdim dilimni» deyishi qalbida Alloh mujassamligi, uning ikki qo'lini ochib, qalbdagi tilaklarni aytish jarayonidagi ruhiy holati go'zal badiiy shaklda mahorat bilan ifodalangan. SHE'r tuzilishi jihatidan to'rt misra, 8-9 bo'g'indan iborat a, a, b, a shaklidagi qofiya, ya'ni, birinchi misrada «qo'limni», ikkinchi misrada «dilimni» va to'rtinchi misrada «yo'limni» so'zlari o'zaro ohangdosh va u she'rga musiqiylik baxsh etgan. SHuningdek, to'rtlik barmoq she'r tizimidagi vazn ko'rinishlaridan biri bo'lmish qo'shma vaznda yozilganligini ham qayd etish joiz.

Farida Afro'zning:

Aytganingni hammasini qil,

Ammo,

Qilganingni yarimini ayt³⁰

uchlik she'rda xalq og'zaki ijodidagi «Yaxshilik qil, suvga sol» deb boshlanadigan maqoli mazmuni ifodalangan. She'rda ushbu maqolning mazmuni saqlangan holda, uning shakli biroz o'zgartirilib, yangicha shaklda ifodalanadi. Uch misrali she'rda misralar bo'g'in soni jihatidan teng emas, she'r erkin vaznda yozilib, birinchi misra 9 bo'g'indan, ikkinchi misra 2 bo'g'indan, uchinchi misra esa 9 bo'g'indan iborat. She'r boshida kelgan so'zlar o'zaro ohangdosh bo'lib, boshqofiya tarzida qofiyalangan.

Xullas, yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z kichik lirik she'rlaridagi vazn va kofiya, turoklanish she'rdagi kechinma va mazmuniy dinamikaning o'sib borishiga mos ravishda kurilganligi, tovushlarning o'zaro ohangdoshligi kichik lirik she'rlarda qofiya va vaznni tizimlashtirgani ular o'ziga xosligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi, deyish maqsadga muvofiqdir.

²⁹ Махмуд Тоир. Уйғок дил. –Тошкент: Хилол-нашр, 2019. – Б. 27.

³⁰ Farida Afro'z. t.me/farida_afroz.

UMUMIY XULOSALAR

1. Badiiy adabiyotning har qanday sohasi, har qanday adabiy tur va janrlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaganidek, kichik lirik shakllarning ham o'z genezisi, tarixi, badiiyatiga xos qonuniyatlari mavjud. Zamonaviy adabiyotga xos tamoyillar tadqiq qilinganida masala har doim keng adabiy-nazariy diapazonda qaralishi lozim. Mazkur mavzu tadqiqida shu qonuniyat tadqiqotchi uchun bamisoli yo'lni yorituvchi mayoq vazifasini bajardi.

2. Kichik lirik she'riy shakllar tabiatiga nazariy jihatdan e'tibor qaratilganida, ularda barcha xalqlarga mansub poetik xususiyatlarning aks etishi, inson fitratiga mos hikmatlar, falsafiy mushohadalar ixcham misralarda jamlanishi ma'lum bo'ldi.

3. Zamonaviy shoirlar o'z asarlarini yaratishda insoniyatning bebaho mulki bo'lmish folklordan unumli foydalanganligi aniq. Shu jihatdan ob'ekt ijodkorlarning mavzuga doir asarlari o'rganilganida olis moziy qa'ridan kelayotgan xalq baxshilari, dono xalqning donishmandlari qalbiga ham quloq tutildi. Hozirgi davr shoirlari ijodidagi kichik she'riy janrlarning folklor bulog'idan suv ichgan qirralari ma'lum darajada yoritib berilgan.

4. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tuyuq, ruboiy, fard kabi bir qancha muhim adabiy janrlar borki, bu borada Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi alloma shoirlar barcha zamonlarda o'z izdoshlari ijodi uchun ulkan mahorat maktabi vazifasini o'taydi. SHu jihatdan, hozirgi o'zbek she'riyatidagi kichik lirik shakllarning paydo bo'lish jarayonini mumtoz adabiyot an'analari ta'siri, zamonaviy shoirlarning o'z ustozlariga havas qilishlari tarzida tahlil qilish joizdir, albatta.

5. Yapon she'riyatidagi juda muhim kichik janrlardan biri bo'lgan «hayku» XX asr o'zbek shoirlarini ham befarq qoldirmadi. Yaponlarga xos donishmandlik, ular uchliklari negizidagi falsafiylik, sharqona hikmatlar mazmuni o'zbek she'riyatida «uchlik», «uchchanoq» kabi kichik lirik she'riy shakllarning paydo bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan.

6. Tabiiyki, har bir ijodkorning o'z individual uslubi mavjud. Tadqiqotda Sirojiddin Sayyid she'rlari maxsus o'rganilganida, uning mumtoz an'analarga mehr-muhabbati, lirik janrlar – fardlar, masnaviy, qit'a va ruboiyga havasmandligi alohida ko'zga tashlanadi.

7. Mahmud Toir to'rtlik, uchlik va ikkiliklaridagi shakl va mazmun kutilmagan hikmatli so'zlar, ba'zan esa maqollardan foydalanish ustuvorligi hamda xalqona ohanglar kuchlilik bilan ajralib turadi.

8. Tadqiqot jarayonida Farida Afro'z she'rlari o'rganilar ekan, shoira ijodiga mansub kichik lirik she'rlarda tabiatga ko'ra shakliyl yangilikka intilish, falsafiylikka moyillik, hamma aytayotgan an'anaviy adabiy mulohazalardan nisbatan «qochish» holatlari kuzatiladi.

9. Har qanday shoir o'z uslubi va so'z qo'llash mahorati bilan boshqalardan ajralib turadi, mumtoz sharq poetikasida urf bo'lgan badiiy san'atlardan unumli foydalanadi. SHu jihatdan Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir hamda Farida Afro'z qalamlariga mansub kichik lirik she'rlarda poetik san'atlar mohirona qo'llangani,

xususan, o'xshatish, metafora, tazod, mubolag'a, alliteratsiya kabi unsurlardan unumli foydalanganliklari aniqlandi.

10. Dunyo va o'zbek adabiyoti tajribasi tarixidan ma'lumki, badiiy asardagi obraz, xususan, she'riyatda lirik qahramon hamisha markazni zabt etadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi kichik lirik she'riy shakllar takomili tadqiqida shoirlarning «men»i obraz holiga kelgani, gohida Vatan tushunchasi, ko'p hollarda quyosh, oy, osmon, daraxt, qush va shu kabi ko'plab tabiat unsurlarining badiiy obraz maqomiga ko'tarilgani kuzatiladi.

11. Badiiy adabiyotning tarkibiy qismi bo'lgan lirik janrlar tadqiq qilinganda bugungi o'zbek shoirlari o'z ixcham she'rlari mohiyatiga ulkan falsafiy mazmun joylagani, ulardan ayrimlari odamlar orasida aforizm o'laroq keng tarqalgani, ba'zan ulkan bir voqelik ifodasi uchun kichik bir she'riy misradan foydalanishning o'zi kifoya qilishi kabi qator qirralar ma'lum bo'ldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ Ph.D.03/30.12.2019.Fil.55.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ДОКТОРА НАУК ПРИ УРГЕНЧСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

ДОШАНОВА ГУЛЖАХАН ИСМАИЛОВНА

**РАЗВИТИЕ МАЛЫХ ЛИРИЧЕСКИХ ФОРМ В СОВРЕМЕННОЙ
УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ**

**(на примере творчества Сирожиддина Сайида, Махмуда Тоира и Фариды
Афруз)**

10.00.02 – узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ургенч - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2021. 2.PhD/Fil.1570

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета по адресу (fil-ik.urdu.uz) и Информационно-образовательном портале Ziyonet по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Гайлиева Огулбай Курбанмурадовна
доктор филологических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты: Каримов Бахадир Нурметович
доктор филологических наук, профессор


Гайипов Дилшод Кадамбаевич
доктор филологических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: Нукусский Государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится « ____ » ____ 20 ____ года в « ____ » часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете. (Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х.Алимджана,14) Тел: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: www.fil-ik.urdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирован за номером ____). (Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х.Алимджана,14) Тел: (99862) 224-67-00).

Автореферат диссертации разослан ____ 20 ____ г.
(протокол рассылки № ____ от ____ 20 ____ года).



3. Дусимов
Заседание Ученого совета о присуждении
ученых степеней, д.ф.н., профессор
С.М.Сариев
секретарь Ученого совета
присужденных степеней, д.ф.н., (DSc), доцент
А.Д.Уразбаев

председатель научного семинара
по развитию Ученого совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Приоритетность принципа изучения формирования и поэтапного развития поэтических жанров в рамках поэтического мышления в мировой литературоведении дает возможность определить место литературного процесса в контексте национального художественного мышления.

Наблюдается, что развитие современного литературного процесса коренным образом обновило теоретические взгляды на функционально-семантические особенности и поэтическую природу поэтических жанров. Это открывает возможности для исследования разнообразия поэтических форм в литературе в контексте национального своеобразия литературных традиций, поэтического мастерства поэтов, процесса художественного воздействия.

В мировом литературоведении достаточно изучены различные стороны поэзии, и в связи с наличием научных трудов, достойных литературно-теоретической традиции изучения лирических произведений, возникает необходимость изучения литературной среды Узбекистана, вступающей в мировое сообщество в годы независимости, а также изучения природы больших и малых литературных жанров в процессе глобализации посредством критерий теории мировой литературы.

В узбекском литературоведении политика бывшего Союза в отношении литературы делала больший акцент на идеологические аспекты лирических произведений. Однако есть в поэзии такие сжатые жанры, что по своему содержанию, мудрости, влиянию на людей они приравниваются к объемным произведениям. Особенно в показе поэтического мастерства современных поэтов, в рассмотрении их талантов лаконично описывать вневременные темы, делать научные выводы, путем сопоставления формы и содержания малых лирических жанров с разных ракурсов, показывая гармоничные и различные стороны периодико-творческой индивидуальности - всё это свидетельствует об актуальности данной проблемы. «...внимание к литературе, искусству и культуре – это прежде всего внимание к нашему народу, внимание к нашему будущему, - как сказал наш великий поэт Чулпон, мы не вправе забывать, что если живы литература и культура, может жить и нация»³¹. В обращении взора нашей национальной поэзии к миру, в развитии поэтического мышления, в развитии подрастающего поколения, в обеспечении художественной зрелости и развитости, несомненно, имеет важное значение философия и мудрость, заложенные в содержание малых лирических стихотворений, имеют большое значение. Обсуждение малых лирических жанров в истории узбекского литературоведения, понимание природы поэтического развития поэта, имеет важное значение в передаче больших смыслов в сжатых изображениях. Вообще в истории классической

³¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

восточной литературы и узбекской литературы XX века много поэтов, обращавшихся к малым лирическим жанрам. Вместе с тем и в современной узбекской литературе имеются ряд поэтов, создающих в данном жанре, поэзию которых следует обсуждать именно в рамках данной темы. Стало быть исследование форм в современной узбекской поэзии, в том числе, своеобразных особенностей малых лирико-поэтических форм, их идейного содержания, возникновения малых лирических форм в национальной поэзии, литературного влияния и гармонии, определение мастерства художника через анализ стихотворений в малых лирических формах дают новые научно-теоретические выводы современного литературоведения. Потому что поэтика и типология лирических жанров, генезис и семиотическая природа строения стихотворения, роль поиска форм стихотворений их семантические функции в выражении содержания, сравнительный анализ и исследование места индивидуального стиля поэта в обеспечении многообразия поэтических форм в малых лирико-поэтических формах, относящихся к произведениям современных поэтов Сироджиддина Сайида, Махмуда Тоира, Фариды Афруз, выявление в них высоких гуманитарных идей, определение совершенствования малых лирических форм в нашей поэзии определяет **актуальность** нашей работы.

Исследование в определенной степени способствует выполнению задач указанных в Указе Президента Республики Узбекистан под номером УП-5850 “О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, в Постановлении под номером ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17 февраля 2017 года, в Постановлении “О Программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения” ПП -3271 от 13 сентября 2017 года, в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №124-Ф от 16 февраля 2018 года “О проведении международной конференции на тему «Актуальные вопросы изучения и популяризации узбекской классической и современной литературы в международном масштабе» и в других нормативных документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии цифрового общества и демократического государства и пути их осуществления».

Степень изученности проблемы. В мировом литературоведении имеются много монографий, теоретических статей, учебников, научных заключений, посвященных изучению лирических произведений. Данная реальность сама по себе является огромной историей. Особенно в

исследованиях С.Стюарта, Х.Вендлера, Дж.Куллера, видных деятелей современного американского литературоведения широко освещены место творческого индивидуального стиля в возникновении новых стихотворных форм и теория лирических жанров³². В научных исследованиях таких русских ученых как Б.А.Успенский, М.Л.Гаспаров, Ю.Н.Тинянов, И.В.Фоменко, И.Ю.Светликова, Г.Н.Каскинова, В.И.Тюпа, Л.Н.Конюхов, Р.О.Якобсон, Е.А.Балашова, О.А.Останкович, Д.И.Кузьмин, Т.И.Бреславец, И.А.Боронина, Е.Дьяконова, Е.Л.Фролова, Екатерина Балакина, Д.Кудря³³ были высказаны теоретические взгляды на вопросы поэтической формы, строения стихотворения, типологии жанров, малых лирических форм в поэзии и их своеобразных особенностей.

Вопросы поэтических форм в поэзии народов, проживающих рядом в определенном регионе, исследовали Ф.Р.Алиева, З.А.Магомедов, М.Х.Халилов, Ш.И.Нуриддинова, А.Ю.Абдулатипов и Л.А.Шабаева³⁴. Наблюдается ряд исследований по вопросам художественных форм в поэзии, поэтических жанров в литературоведении тюркских народов, в частности, каракалпакского³⁵ и туркменского³⁶.

³² Stewart S. Poetry and the Fate of the Senses. – Chicago: University of Chicago Press, 2002; Vendler H. Poems, Poets, Poetry. – Boston: Bedford/St. Martins, 2002; Culler J. Theory of the Lyric. Cambridge. – Harvard: University Press, 2015.

³³ Стеблева И.В. К вопросу о происхождении жанра тютю. // Тюркологический сборник. – М., 1970; Успенский Б.А. Поэтика композиции. – СПб., 2000; Гаспаров М. Л. Очерк истории русского стиха. – М., 2000; Тинянов Ю.Н. Проблема стихотворного языка. Литературный факт. – М., 2002; Фоменко И.В. Введение в практическую поэтику. – Тверь, 2003; Светликова И.Ю. Истоки русского формализма. – М.: Новое литературное обозрение, 2005. – 176 с.; Каскинова Г.Н. Вопросы структурной поэтики в современной бакирской поэзии: Автореф. дисс. филол. наук. – Уфа, 2007. – 21 с.; Тюпа В.И. Анализ художественного текста. – М.: Издательский центр «Академия», 2009. – 336 с.; Конюхов Л.Н. Формально-содержательные модификации монотиха в русской литературе XX века: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2009. – 24 с.; Якобсон Р.О. Формальная школа и современное русское литературоведение. – М.: Языки славянских культур, 2011. – 280 с.; Балашова Е. А. Анализ лирического стихотворения (учебное пособие). – М.: Флинта, 2011; Останкович А.В. Повтор в гармонической системе триолета // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов, 2013. – №3 (21). – часть 1. – С.121-123; Кузьмин Д.И. История русского монотиха. – М.: Новое литературное обозрение, 2016. – 432 с.; Бреславец Т.И. Традиция в японской поэзии: Классический стих танка / Бреславец Т.И. – Владивосток: Изд-во Дальневост. Ун-та, 1992. –120; Боронина И.А. Поэтика японской «танка» // Народы Азии Африки. 1965. №5; Е.Дьяконова. Как читать и помнить хаика. academy/materials; Фролова Е.Л. Основы классического японского стихосложения. <http://japanstudies.ru>. Е.Балакина. Своеобразие японской поэзии в стиле хокку (хайку), танка. <https://tvorcheskie-proekty.ru>; Д. Кудря.Хайку plus, или несколько слов о «русский хайку» // Арион, 2011. №1. Стр.74-79.

³⁴ Алиева Ф.Р. Песенное стихосложение карачаевцев и балкарцев: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Махачкала, 1995; Магомедов З.А. Композиция песенной лирики народов Дагестана. – Махачкала, 2003. – 203 с. Халилов Х.М. Лирика народов Дагестана: взаимосвязи, типология и этническая специфика. Махачкала, 2004. – 296 с.; Нуриддинова Ш.И. Трансформация персидско-таджикского рубая в арабской поэзии XI-XIII вв.: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Душанбе, 2009; Абдулатипов А.Ю., Шабаева Л.А. К проблеме типологии, специфик и взаимосвязей тюркоязычных лириг и турецкой литературы первой половины XX века // Вестник Дагестанского госуниверситета. – Махачкала, 2013. – №1. – С.243-246; Ким Хен Ён. Теория метатекста и формы ее проявления в поэтике // Acta slavica i aponica. T.21. – Tallin, 2014. – PP. 202-213.

³⁵ Мамбетов Қ. Әдебиет теориясы. – Некис: Билим, 1995; Хамидова А. И. Юсупов творчествосы ҳам Европа әдебияты (әдебий байланыслар ҳам әдебий тәсирлер мәселеси): Филол. илим. канд. дисс. – Некис, 1999; Пахратдинов Д. И. Юсупов лирикасында Шығыс классисери дәстүрлери (әдебий байланыслар ҳам тәсирлер ҳақында): Филол. илим. канд. дисс. – Некис, 2001; Жаримбетов Қ. XIX әсир каракалпак лирикасындаң жарналық қасийетлери ҳам раўақлаңыў тарийлы. – Некис, 2004; Оразымбетов Қ. Хәзирги дәуирдеги каракалпак лирикасында көркемлик излениўшилиқ. – Некис: Билим, 1992; Уша муаллиф: Хәзирги каракалпак лирикасында көркем формалардың эволюциясы ҳам типологиясы. – Некис: Билим, 2004; Досымбетова А. Ш. Сейтов лирикасында көркем форма. Филол. илим. канд. дисс. – Некис, 2008; Гайлисва О. Ғәрәзизлик дәуири түркий

Узбекское стиховедение прошло классическими путями и вошло в определенную систему накануне 20-х годов XX века. Правила анализа поэтических произведений были показаны в научных трудах таких ученых литературоведов, как Абдурауф Фитрат, Абдурахман Саади, Айбек, а позднее Иззат Султан. Если обратить внимание на историю изучения темы, можно увидеть, что узбекское литературоведение имеет большой опыт в этой области³⁷. В свою очередь литературовед Р. Орзибеков исследовал малые лирические жанры и опубликовал специальную монографию³⁸. Ряд ученых проводили специальные исследования малых лирических жанров в классической поэзии³⁹. Ферганский литературовед Каххор Юлчиев написал специальную книгу «Типологические сходства: единостишие и трехстишие»⁴⁰. Литературовед С.Джурова в исследовательской работе «Исследование классических лирических жанров в узбекской литературе XX века (на примере рубайи, туюка, кыта)» (Самарканд, 2020) сопоставляет стихотворения в форме рубайи, туюка, кыта в узбекской классической литературе и освещает их специфические особенности.

Также исследование вопроса малых лирических стихотворных форм каракалпакской исследовательницей О. Гайлиевой на примере произведений узбекских, каракалпакских и туркменских поэтов еще больше расширило рамки данной проблемы⁴¹.

Но до сегодняшнего дня развитие малых лирических форм в современной узбекской поэзии сравнительно не исследовано на примере произведений Сироджиддина Сайида, Махмуда Тоира и Фариды Афруз. Роль художественной литературы, в том числе и поэзии, очень велика в

халыклар лирикасында формалык изленислер ҳам олардын типологиясы (өзбек, каракалпак ҳам туркмен лирикасы мысалында). Докт. Дисс. – Нокис, 2019.

³⁶ Абдыллаев Ө. Эдебият теориясы. – Ашгабат: Магариф, 1985; Садыков Т. Гурбанназар Эзизовын поэзиясында чеперчилик усаатлыгы: Филол. илим. канд. дисс. Автореф. – Ашгабат, 1995; Orazowa J. Türkmen poeziýasynda owupuk bölekler / «Garagum» jurnaly. – Aşgabat, 2013. №3; Амансәхедов М. Шыгыр сунгаты ве шахырана шахсыет. – Ашгабат: Рух, 2000; Amansähedow M. Edebiyat teoriýasynyň esaslary. – Türkmenabat, 2010;

